



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 8-iyul

VII-9-70-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli qarori yuzasidan bergan takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli qarorining:

2-bandi, b)-kichik bandi, 2-xatboshidagi:

“..., jami 150 000,0 ming so‘m;” - so‘zlaridan so‘ng, “ushbu MFYlarga elektr energiyasi tarmog‘i tortish uchun tayanchlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman obodonlashtirish boshqarmasiga; - so‘zlari qo‘shilsin;

2-bandi, b)-kichik bandi, 3-xatboshidagi:

“... – Xo‘roba MFYga 400 000,0 ming so‘m va Satkak MFYga 100 000,0 ming so‘m, jami 650 000,0 ming so‘m;” - so‘zlari, “... – Xo‘roba MFYga 600 000,0 ming so‘m Suv ta‘minoti va oqava suv ob‘ektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi unitar korxonasiga o‘tkazish uchun tuman hokimligiga va Satkak MFYga 100 000,0 ming so‘m tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga, jami 700 000,0 ming so‘m;” – so‘zlariga o‘zgartirilsin;

Shuningdek, tuman miqyosidagi dolzarb, o‘z yechimini kutayotgan masalalarni hal etish maqsadida, Yuqori Gulshan MFY, Soxibkor ko‘chasi 94-uyda yashovchi fuqaro Madumarova Tursunoy Xamdamjon qizining yong‘in natijasida yashash uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan xonadonini qayta tiklash xarajatlari uchun 25 000,0 ming so‘m tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

2-bandi, b)-kichik bandi, 5-xatboshidagi:

“- shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosidagi hamda boshqa xarajatlari uchun 507 438,9 ming so‘m ...” - so‘zlari, “- shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosidagi hamda boshqa xarajatlari uchun 282 438,9 ming so‘m ...” - so‘zlariga o‘zgartirilsin;

2. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yo‘ldashev) zimmlariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV
ILXOMJON
AKBARALIYEVICH